



LINGUISTIC FEATURES OF ENGLISH GEOLOGICAL TERMINOLOGY AND THE PROBLEMS OF ITS TRANSLATION

Lola Azimjanovna Rikhsieva

*Teacher, Department of English Applied Translation
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan*

lolarihsieva77@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-7478-5734>

<https://doi.org/10.36078/1778859125>

Abstract. This article analyzes linguistic phenomena in English geological terminology and the challenges involved in translating geological terms into Uzbek. The study focuses on homonymy, synonymy, and polysemy within geological terminology as key linguistic factors affecting translation accuracy. It examines issues related to the unit of translation and demonstrates how these phenomena may lead to misinterpretation, semantic discrepancies, and terminological ambiguity. The relevance of the topic is determined by the rapid development of geological sciences, increasing interdisciplinary integration, and the widespread use of English-language scientific resources. The novelty of the article lies in its analysis of homonymy and polysemy in geological terms from the perspective of translation studies, with particular attention to the difficulties that arise in the translation process. These difficulties may be intensified by "translator's false friends" and non-terminological lexical units, which can cause a term to be interpreted outside its scientific context and result in inaccurate translation. The main objective of the research is to identify the semantic features of English geological terms and to reveal the challenges of rendering them into Uzbek. The findings substantiate the need for specialized translators to take into account context, the relevant terminological system, and semantic precision when translating geological terms. The article also offers practical recommendations for improving translation accuracy.

Keywords: geology; terminology; homonymy; synonymy; polysemy; unit of translation; translation challenges..

INGLIZ TILIDAGI GEOLOGIK TERMINLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI VA ULARNI TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

Lola Azimjanovna Rixsiyeva

*Ingliz tili amaliy tarjima kadefrasi o'qituvchisi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilidagi geologiya terminlarida uchraydigan lingvistik hodisalar hamda ularning o‘zbek tiliga tarjima qilinishida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda geologik terminologiya tizimida mavjud bo‘lgan omonimiya, sinonimiya va polisemiya hodisalari asosiy lingvistik omillar sifatida ko‘rib chiqildi. Mazkur hodisalar terminlarning semantik aniqligiga ta’sir ko‘rsatib, tarjima jarayonida noto‘g‘ri talqinlar, mazmuniy nomuvofiqliklar va terminologik noaniqliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladigan tarjima birligi bilan bog‘liq muammolar ilmiy jihatdan asoslandi. Mavzuning dolzarbligi geologiya fanining jadal rivoji, fanlararo integratsiyaning kuchayishi hamda ingliz tilidagi ilmiy manbalarning keng qo‘llanilishi bilan belgilandi. Maqolaning yangiligi shundaki, unda geologiya terminlaridagi omonimiya va polisemiya hodisalari tarjimashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinib, ularning tarjima jarayonida murakkablik va muammolar keltirib chiqarishi yoritib beriladi. Bunday hollarda tarjimada uchraydigan “tarjimonning soxta do‘stlari” va terminologik bo‘lmagan birliklar muammolarni yanada kuchaytiradi, chunki ular terminning ilmiy kontekstga mos kelmasligi va noto‘g‘ri tarjima qilinishiga olib keladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz tilidagi geologik terminlarning semantik xususiyatlarini aniqlash va ularni o‘zbek tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolarni ochib berishdan iborat. Tadqiqot natijasida sohaviy tarjimonlar uchun terminlarni tarjima qilishda kontekst, sohaviy tizim va semantik aniqlikni hisobga olish zarurligi asoslab berildi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: geologiya; terminlar; omonimiya; sinonimiya; polisemiya; tarjima birligi muammolari.

Kirish

Har qanday bilim sohasi o‘ziga xos terminologik tizimga ega bo‘lib, ushbu tizimni chuqur va mukammal o‘zlashtirmasdan turib, mazkur sohani to‘laqonli anglash, ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda uni rivojlantirish mumkin emas. Shu bois terminologiya nafaqat yordamchi vosita, balki ilmiy bilish jarayonining ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ilm-fanning taraqqiyoti yangi ilmiy g‘oyalar, nazariy konsepsiyalar hamda innovatsion yondashuvlarning yaratilishi bilan bir qatorda, terminologik tizimlarning izchil ravishda takomillashib borishini ham taqozo etadi. Chunki fan rivojlangan sari yangi tushunchalar paydo bo‘ladi, mavjud tushunchalar esa qayta talqin qilinadi yoki aniqlashtiriladi. Bu esa terminologiyaning doimiy ravishda yangilanib borishini, ilmiy ehtiyojlar va zamonaviy talablarga moslashtirilishini talab qiladi. Mukammal va barqaror terminologik tizimlar xalqaro ilmiy maydonda yagona tushuncha va muloqot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Ular turli mamlakat va ilmiy maktablarga mansub olimlar o‘rtasida ilmiy axborot almashinuvini osonlashtiradi, noto‘g‘ri talqin va tushunmovchiliklarning oldini oladi hamda samarali ilmiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun mustahkam zamin yaratadi. Natijada, terminologiyaning izchil rivoji global miqyosda ilmiy bilimlarning umumiy fondini boyitishga, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga va ilmiy taraqqiyotning jadallashuviga bevosita xizmat

qiladi. Shu bilan birga, terminlarning tarjimasini masalasi ham ilmiy faoliyatda alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, ilmiy bilimlarning globallasuvi sharoitida turli tillarda yaratilgan ilmiy manbalarni o'zaro tarjima qilish, terminlarning mazmunan to'g'ri va adekvat ifodalanishini ta'minlash dolzarb vazifalardan biridir. Termin tarjimasida so'zma-so'z yondashuvdan ko'ra, tushunchaning mohiyati, funksional xususiyatlari va ilmiy kontekstdagi qo'llanilishi inobatga olinishi lozim. Aks holda, termin mazmunining buzilishi yoki noto'g'ri talqin qilinishi ilmiy tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Tilshunoslikda umumiy terminologiyaga oid nazariy qarashlar, terminlarni standartlashtirish tizimi borasida qator tadqiqotlar hahuzgacha olib borilmoqda. O'zbek va xorijiy olimlar X. D. Paluanova, O. S. Ahmedov, B. X. Omonov, B. T. Turdikulova, K. Kageura, J. Pirson, R. Temmerman, P. S. Rey, V. M. Leychik, G. O. Vinokur, D. S. Lotte, V. P. Danilenko tomonidan ilmiy-texnik terminologiyani shakllantirish nazariyasi, terminga qo'yiladigan talablar va termin tavsifining yangi yo'nalishlari hamda ikki yoki uch til doirasida har xil soha terminologiyasining rivojlanishi, struktur-semantik jihatlarining qiyosiy-chog'ishtirma xususiyatlari bilan shug'ullanganlar. Shuningdek, tarjima masalalari va unda uchraydigan muammolarni hal qilishda nazariy hamda amaliy yondashuvlari o'zbek va xorijiy olimlar G'. Salomov, I. G'ofurov, O. Mo'minov, N. Qambarov, G'. Rahimov, U. Yo'ldoshev, L. S. Barxudarov, R. K. Minyar-Beloruhev, L. K. Latishev, Z. G. Proshina, N. N. Bobyeva, M. Y. Ilyushkina, J. P. Vine, J. Darbelne, P. Nyumarkning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan.

Asosiy qism

Ilmiy manbalarda termin tushunchasiga berilgan lingvistik ta'riflar, asosan, ikki asosiy guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga mansub qarashlarga ko'ra, terminlar tabiiy tilning leksik tizimi doirasida shakllangan va muayyan fan yoki soha ehtiyojlariga xizmat qiluvchi maxsus so'z birliklari hisoblanadi. Ushbu yondashuv terminlarni umumiy leksikadan ajralgan, ammo ayni paytda til tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lgan birliklar sifatida talqin etadi. Mazkur fikrni ilmiy jihatdan asoslab bergan tadqiqotchilardan biri D. S. Lotte bo'lib, u terminlarga qo'yiladigan muayyan normativ talablar tizimini ishlab chiqqan. Uning ta'kidlashicha, termin, avvalo, ixcham va aniq bo'lishi, ya'ni ortiqcha murakkablik va uzunlikdan xoli bo'lishi lozim. Shuningdek, termin ko'p ma'nolilik (polisemiya), sinonimiya va omonimiyadan holi bo'lishi talab etiladi. Bu talab nafaqat terminning o'ziga, balki uning tarkibiy qismlariga ham taalluqlidir [Lotte 1961: 5]. Chunki terminologik aniqlik ilmiy muloqotda tushunmovchiliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Olimning fikricha, faqat ushbu normativ mezonlarga to'liq javob bera olgan leksik birliklarga haqiqiy

termin maqomiga ega bo'lishi mumkin. Aks holda, ular umumiy leksika doirasidagi so'zlar sifatida qolib ketadi yoki ilmiy muomalada barqaror qo'llanish imkoniyatini yo'qotadi. Shu sababli, terminlarni maxsus so'zlar sifatida tan olish jarayoni ularning semantik aniqligi, tizimliliigi va standartlashganligi bilan bevosita bog'liqdir. Tilshunoslarning fikriga ko'ra, termin monosemantik bo'lishi, ya'ni faqat bitta ma'noga ega bo'lishi kerakligi ta'kidlangan.

Terminologik tizimlarda muayyan kamchiliklarning mavjudligi, xususan, terminlarga berilgan yagona va umumqabul qilingan ta'rifning yo'qligi, shuningdek, terminlarning omonimiya, sinonimiya va ko'p ma'nolilik, hodisalari asosida qo'llanilishi ilmiy adabiyotlarda keng e'tirof etilgan masalalardan biridir. Ushbu holat terminologiya nazariyasida turli yondashuvlarning shakllanishiga olib kelgan bo'lib, terminlarga nisbatan ilgari ustuvor hisoblangan qat'iy bir ma'nolilik talabi zamonaviy tadqiqotlarda qayta ko'rib chiqilmoqda. Ikkinchi guruhga mansub qarashlar doirasida, jumladan, T. S. Rosyanova terminologik birliklarga bo'lgan yangicha yondashuvlar rivojlanishi natijasida termin faqat bir ma'noli bo'lishi shart degan an'anaviy qarashdan voz kechilib, uning real ilmiy amaliyotda ko'p ma'noli yoki turli ma'nolarda qo'llanishi mumkinligi haqidagi konsepsiya shakllanganini ta'kidlaydi [Росьянова 2011: 105–108]. Umuman olganda, termin va terminologiyaga qo'yilgan talablar, asosan, ularning tashqi va formal belgilarini tavsiflash bilan cheklanib qolgan. Shu munosabat bilan M. R. Milud terminning ma'nosi faqat muayyan soha doirasida aniqlanishini qayd etadi. Uning fikricha, har bir termin ma'lum bir fan yoki bilim sohasi doirasida boshqa terminlar bilan tizimli munosabatda bo'lib, aniq ilmiy ta'rifga ega bo'ladi [Милуд 2023: 24–34].

Terminlar kundalik leksik birliklardan farqli ravishda aynan bir terminologik tizim ichida bir ma'nolilik xususiyatini saqlaydi. Biroq ayni termin turli bilim sohalarida ham uchrashi mumkin bo'lib, bunday holat polisemiya ko'ra omonimiya sifatida baholanadi. Buni geologiya bilan bir qatorda boshqa sohalarida ham qo'llaniladigan termin misolida ko'rish mumkin. Masalan, ingliz tilidagi bank yoki plate terminlari turli fan sohalarida mustaqil termin sifatida ishlatiladi. Xususan, geologiyaning ichki sohasi geomorfologiyada bank – dengiz, daryo yoki ko'l tubidagi qum-tosh yotqiziqlari, moliya-iqtisodiyotda bank – moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi kredit-moliya muassasasi ma'nosida qo'llaniladi. Yoki plate termini geologiyada tektonik plita, energetika sohasida akkumulyatorning musbat yoki manfiy elektrodi, harbiy sohasida zirh degan ma'nolarda qo'llanilib, turli sohalarida alohida terminologik tizimlarga mansub bo'lib, ularning o'zaro bog'liqligi yo'q, shu sababli bu hodisa ko'p ma'nolilik emas, balki omonimiya sifatida talqin qilinadi.

Terminologik tizimda sinonim birliklarning qo'llanilishi masalasi tadqiqotchilar o'rtasida ko'pincha munozarali jihatlardan biri sifatida baholanadi. Ushbu masalaga e'tibor qaratgan olimlardan biri E. Tolikina bo'lib, uning fikricha, sinonimik qatorida mavjud bo'lgan terminlar aksariyat hollarda ortiqcha birliklar hisoblanadi. Bunday terminlar terminologiyani o'zlashtirish jarayonini murakkablashtiradi, ilmiy axborotni ifodalash va uni aniq qabul qilishga salbiy ta'sir ko'rsatadi [Толикина 1970: 35–67]. Mazkur qarashni qo'llab-quvvatlagan holda ta'kidlash joizki, terminologiyada sinonimlarning haddan tashqari ko'pligi ilmiy muloqotning aniqligiga putur yetkazadi. Garchi sinonim terminlar bir xil tushunchani ifodalasa-da, ularning turli shakllarda qo'llanilishi, ayniqsa, sohani endi o'rganayotganlar yoki mutaxassis bo'lmagan shaxslar orasida chalkashlik va noto'g'ri talqinlarga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ortiqcha sinonimik birliklarning mavjudligi terminologik tizimning ichki izchilligini susaytiradi hamda terminlarni me'yorlashtirish va standartlashtirish jarayonini murakkablashtiradi. Yurtimizda terminologiya masalalari bo'yicha tadqiqot olib borgan olim X. D. Paluanovanning fikricha: "Sohadagi yangi tarmoqlarning vujudga kelishi yangi terminologik tizimlar shakllanishiga olib keladi, bu esa, sinonim-terminlarning hosil bo'lishiga sabab bo'ladi, shuningdek, terminologiyani tadqiq qilish va tartibga solish masalalarini murakkablashtiradi" [Палуанова 2016: 9]. V. Danilenko esa, aksincha, sinonimlar terminologiyada ishlatilishi o'rinli ekanligini ta'kidlab, shunday yozadi: "Sinonimlarning mavjudligi terminologik tizimning semantik rivojlanishiga hissa qo'shadi, muayyan kontekstda eng munosib so'zni tanlashga yordam beradi hamda terminologiyada matn taqdimotida takroriylikning oldini oladi" [Даниленко 1977: 21].

Terminlarning semantik tuzilishga ko'ra bir yoki undan ortiq terminologik tizim doirasidagi ikki yoki undan ortiq ma'noga ega bo'lgan ko'p ma'noli (polisemiya) terminlarni bir ma'noli terminlardan ajratib olishga yordam beradi [Kageura 2000]. Misol uchun, weathering – nurash (eroziya), ya'ni shamol uchirib kelgan mineral zarrachalar ta'sirida tog' jinslarining yemirilishi petrografiya va degazatsiya, ya'ni kimyoviy zararli va portlovchi moddalardan zararlantirish degan ma'nolarda konchilikda hamda harbiy sohada ko'p ma'noli termin sifatida ishlatiladi. Bu yerda terminlar kontekstga bog'liq bo'lmagan holda tarjima qilinadi deb ayto olmaymiz. Terminlarni matn va kontekst doirasida tadqiq etish masalasi bilan shug'ullangan xorijiy tadqiqotchilar qatorida J. Pirson va R. Temmerman alohida o'rin tutadi. Ular o'z tadqiqotlarida terminlarning faqat izolyatsiyalangan birlik sifatida emas, balki real nutqiy muhitda va foydalanish sharoitida namoyon bo'ladigan muhim hamda qiziqarli xususiyatlarini ochib berganlar. Olimlarning ta'kidlashicha, terminlarga

nisbatan an'anaviy onomasiologik yondashuv, ya'ni terminlarni faqat muayyan tushunchalarga birlashtirilgan statik birliklar sifatida talqin qilish amaliy jarayonlarni to'liq aks ettira olmaydi [Pearson 1998: 89–104]. Shu bois ular terminologiyani dinamik va o'zgaruvchan tizim sifatida talqin etishni taklif qiladilar [Temmerman 2000: 219–238]. Bunday yondashuv terminlarning kontekstga, kommunikativ vaziyatga va foydalanish sharoitiga bog'liq holda turlicha namoyon bo'lishini hisobga olishni taqozo etadi. Mazkur amaliy yondashuvni tarjima jarayoni misolida yaqqol kuzatish mumkin, chunki tarjimada terminlar faqat lug'aviy muqobillar orqali emas, balki ularning funksional va kontekstual xususiyatlarini inobatga olgan holda talqin qilindi.

Terminologik tizimda sinonimiya va polisemiya hodisalarining mavjudligi tarjimada yagona va me'yoriy tarjima birligini aniqlashni murakkablashtiradi hamda mazmuniy nomuvofiqliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Tarjimalarda terminlarning noto'g'ri qo'llanilishi yoki so'zning terminologik bo'lmagan ma'noda qo'llanilishi terminning mohiyatini tushunmaslikdan dalolat beradi. L. S. Barxudarov o'z ilmiy ishida tarjima birlikni quyidagicha ta'riflaydi: "Tarjima birligi deb asliyat matnida mavjud bo'lgan va tarjima jarayonida tarjima matnida muayyan muqobilga ega bo'ladigan, biroq uning tarkibiy qismlari alohida-alohida ko'rib chiqilganda tarjima qilinayotgan matndagi birliklarga to'liq mos kelmaydigan til birligi tushuniladi" [Бархударов 1975: 175]. O'zbek tilshunos olimlari I. G'afurov, O. Mo'minov, N. Qambarovlar nima uchun birliklarning tarkibiy qismlari alohida ko'rilganda tarjima qilinayotgan matndagiga mos kelmasligini quyidagicha tushuntirib berishgan: "Ma'lumki, tarjimada bitta tushunchaga bitta tushunchaning to'g'ri kelish holatlari kam uchraydi, bir so'zga so'z birikmasi, bir so'zga gap, hatto bitta so'z ma'nosiga ikki va undan ortiq so'zlardan iborat bo'lgan frazeologik birlik to'g'ri kelishi mumkin" [G'afurov, Mo'minov, Qambarov 2012: 106]. Ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra, tarjima birligi tarkibiga tilda mavjud bo'lgan barcha birliklar, ya'ni fonema, morfema, so'z, so'z birikmasi, klishelar, frazeologik birlik, terminlar, gap, abzas va tarjima qilinayotgan butun matn kiradi [Илюшкина 2015: 18].

Geologiya sohasiga oid matnlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida tarjima birligi bilan bog'liq muammolar muayyan holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, amaliyotda malakasi yetarli bo'lmagan tarjimonlar ko'pincha lug'atlarda berilgan so'zning birinchi ma'nosini tanlash bilan cheklanadilar. Biroq mazkur birinchi ma'no aksariyat hollarda terminologik birlik bo'lmasligi mumkin. Natijada, sohaviy matnlarda mazmunning buzilishi va noto'g'ri tarjima birliklarining qo'llanilishi kuzatiladi.

1-jadval*Terminologik bo'lmagan birliklar bilan tarjima qilish muammosi*

Asliyat	Muammoli tarjima (xato)	To'g'ri tarjima
<u>Weathering</u> significantly affects the physical and chemical properties of rocks.	Ob-havo tog' jinslarining fizik va kimyoviy xossalriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.	<u>Nurash</u> jarayoni tog' jinslarining fizik va kimyoviy xossalriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.
The <u>freezing point</u> of paraffin was determined under laboratory conditions.	Parafinning muzlash nuqtasi laboratoriya sharoitida aniqlandi.	Parafinning <u>kristallanish harorati</u> laboratoriya sharoitida aniqlandi.

Izoh. Muallif tomonidan yozilgan.

Keltirilgan misollar tarjima jarayonida tarjima birligini umumtil leksik birlik sifatida emas, balki terminologik birlik sifatida belgilash muhimligini yaqqol namoyon etadi. Weathering va freezing point terminlarni umumtil ma'nosida tarjima qilinganda ilmiy mazmun buziladi. Biroq ushbu birliklar geologiya sohasiga xos terminologik birlik sifatida qabul qilinsa, ularning to'g'ri ilmiy ekvivalentlarini aniqlash mumkin bo'ladi. Mazkur holat tarjima birligi muammosining mohiyati aynan terminning leksik shaklida emas, balki uning sohaviy tushuncha bilan bog'liqligida ekanini ko'rsatadi.

Tarjima birligi bilan bog'liq muammolarning yana bir turi asliyat tilidagi leksik birliklarning tovush jihatidan o'xshash shaklda tarjima qilinayotgan tilga ko'chirilishi natijasida yuzaga keladi. Bunday holatlar tarjimashunoslikda "tarjimonning soxta do'stlari" deb ataladi va ular tarjima jarayonida chalkashliklar hamda semantik nomuvofiqliklarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, geologik terminologiyada bunday birliklarning noto'g'ri talqin qilinishi matnning ilmiy aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda tarjimaning sifatini pasaytiradi.

2-jadval*Geologik terminlar bo'yicha 'tarjimonning soxta do'stlari' (Translator's False Friends) ro'yxati:*

Asliyat	Muammoli tarjima (xato)	To'g'ri tarjima
bar coal deposit	bar ko'mir depositi	cho'kindi tizmasi ko'mir koni

fabric	mato, to‘qima	tuzilma (struktura)
formation	formatsiya	geologik qatlamlar majmuasi
concentration	konsentratsiya	to‘planma, zichlik
profile	profil	kesim, kesma
reservoir rock	rezervuarli tog‘ jins	kollektor
basset	basset	tog‘ jinslari qatlamining qirrası
shock breccia	shok brekchiya	zarba brekchialari
resin opal	rezina opal	mumsimon opal yoki qatron

Proshina “Теория перевода” (Tarjima nazariyasi) asarida asliyat va tarjima qilinayotgan matnlarni solishtirganda, “tarjimonning soxta do‘stlari” semantik, sintaktik, stilistik va pragmatik jihatdan farq qilishini bayon etgan [Прошина 2008: 131]. Bunga ko‘ra, geologiyaga oid matnlarni ingliz tildan o‘zbek tiliga tarjima qilishda faqatgina semantik jihati namoyon bo‘ldi va quyidagi ikkita qarama-qarshiliklarni o‘z ichiga oldi. Bular: 1) umumiy va o‘ziga xos ma’no; 2) monosemantik va polisemantik. Misol uchun, reservoir so‘zi rezervuar degan umumiy ma’noga ega, lekin reservoir rock termin birikmaning umumiy ma’noga qarshi xos ma’nodagi (g‘ovakli qumtosh yoki kollektor) tarjimasi tavsiya etilgan. Gap misolida ham keltirishimiz mumkin. Asliyat: Among the carbonate rock types, sandstones are considered the most important reservoir rocks. In contrast, shales are generally less significant as reservoir rocks, but they play a crucial role as cap rocks or impermeable seals that are necessary for the formation of petroleum reservoirs [Al-khudafi, Fare 2024: 7]. Tarjima: Karbonat jins turlari orasida qumtoshlar eng muhim kollektor jinslar hisoblanadi. Buning aksi o‘laroq, slanesh jinslari odatda kollektor jins sifatida kamroq ahamiyatga ega, biroq ular neft konlarining shakllanishi uchun zarur bo‘lgan qoplama jinslari yoki suv o‘tkazmaydigan qatlam vazifasini bajarib, hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tahlil: Tarjimada ikki holatda ham asliyatdagi reservoir rocks o‘zbek tiliga umumiy ma’noga qarshi xos ma’noda kollektor jinslar deb tarjima qilindi, petroleum reservoirs termin birikmasi esa aniqlik kiritilgan holda, neft rezervuarlari emas, balki neft konlari deb tarjima qilindi, yoki basset polisemantik termin bo‘lgani uchun, geologiyaga oid ma’nosi tanlanadi, agar asliyat tilidan so‘zni harfma-harf tarjima qilinayotgan tilga o‘tkazilsa, basset – zotdor itning nomini anglatadi va natijada tarjimada chalkashlik yuzaga keladi. N. Bobyreva “tarjimonning soxta do‘stlari”ni ikkita asosiy guruhga bo‘lib o‘rgangan. Birinchi guruhga shakl jihatdan o‘xshash, lekin ma’no jihatdan butunlay boshqacha so‘zlarni kiritgan [Бобырева 2012: 27–28]. Misol uchun, *resin opal* termin birikmaning birinchi qismi rezina so‘zining yozilishiga juda yaqin bo‘lgani uchun tarjima jarayonida tarjimonlar

tomonidan avtomatik ravishda ishlatilishi mumkin, lekin mineralogiyada minerallarning ko‘rinishi bo‘yicha mum yoki qatron (smola) so‘zlari qo‘llanishi joiz. Ikkinchi guruh bir-birini to‘liq almashtirib bo‘lmaydigan so‘zlarni o‘z ichiga oladi, ammo ularning ma’nosida umumiy elementlar mavjud. Misol uchun, thin hydroxyapatite films – yupqa gidroksiapatit plyonkalar.

Tarjima birligi bilan bog‘liq muammolarning navbatdagi ko‘rinishi bitta terminning o‘zaro semantik jihatdan bog‘liq bo‘lgan bir nechta ma’nolarga ega bo‘lishi, ya’ni polisemiya hodisasi bilan izohlanadi. Ilmiy matnlarda mazkur hodisa ayniqsa murakkab sanaladi, chunki terminning noto‘g‘ri ma’nosini tanlash terminologik xatolarga va ilmiy mazmunning buzilishiga olib kelishi mumkin. Geologiya sohasiga oid terminlarda polisemiya tarjimada mos leksik ekvivalentni tanlashni qiyinlashtirib, matnning ilmiy aniqligi va ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tarjima jarayonida ingliz tilidagi ko‘plab geologik terminlar dastlab umumtil birliklari bo‘lganini, keyinchalik terminlashganini hamda boshqa fan sohalarida ham qo‘llanilib, kontekstga qarab turli ma’nolarni anglatishini hisobga olish zarur. Masalan, *fault* termini umumiy tilda ayb ma’nosini ifodalasa-da, geologiyada u yer po‘stida yuzaga kelgan tektonik uzilishni bildiradi. Shuningdek, *ablation* termini fanlararo polisemiya xususiyatiga ega bo‘lib, geologiyada va glatsiologiyada muzliklarning erishi yoki yemirilishini anglatadi, tibbiyot sohasida esa biologik to‘qimalarning maqsadli ravishda olib tashlanishi ma’nosida qo‘llaniladi. Bundan tashqari, *basin* termini geologiyada cho‘kindi jinslar to‘planadigan yirik strukturani ifodalasa, geografiya va gidrologiyada suv yig‘ilish hududini anglatadi. Xuddi shuningdek, *crust* termini geologiyada yer po‘stini bildirsa, umumiy tilda tashqi qobiq yoki qatlam ma’nosida qo‘llaniladi. Ushbu misollar geologik terminlarda polisemiya hodisasi tarjima jarayonida kontekstni chuqur tahlil qilish va sohaviy tizimni hisobga olish zarurligini yaqqol namoyon etadi.

Geologik matnlarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda sohaviy tarjimonlar ko‘plab lingvistik va terminologik qiyinchiliklarga duch keladilar. Tadqiqot natijalari asosida sohaviy tarjimonlar uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni taqdim etamiz:

Kontekstni hisobga olish: Terminning lug‘aviy ma’nosiga emas, balki matndagi qo‘llanilish konteksti va sohaviy vaziyatiga e’tibor qaratish;

Sohaviy tizimni aniqlash: Terminning qaysi fan yoki subsoha terminologiyasiga mansub ekanini aniqlash va tarjimada shu tizimga mos ekvivalentni tanlash;

Polisemiya va omonimiyaga e'tibor: Bir nechta ma'nolarga ega terminlarda (polisemiya) va turli fan sohalarida bir xil shaklda ishlatiladigan terminlarda (omonimiyaga) kontekst va ilmiy vaziyatni hisobga olish;

Terminologik manbalardan foydalanish: Sohaviy lug'atlar, terminologik bazalar va mutaxassislarining maslahatlari orqali aniq ekvivalentlarni tanlash;

Standartlashtirish va izchillik: Bir matn doirasida tanlangan terminlarni izchil qo'llash va standart terminlarni afzal ko'rish;

Tarjima birligiga e'tibor: Terminlar tarkibiy qismlarini alohida tarjima qilishdan saqlanib, butun birlik sifatida mos ekvivalentni topishga intilish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidagi geologik terminlarning sinonimiya, polisemiya va omonimiya kabi lingvistik xususiyatlari tarjima jarayonida turli darajadagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu murakkabliklar, ayniqsa, terminologik birlikning to'g'ri ekvivalentini aniqlashni talab qiladi, chunki noto'g'ri talqin ilmiy mazmunning aniqligini pasaytiradi va matnning izchilligini buzadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, terminlar nafaqat lug'aviy ma'noga, balki matndagi kontekstga, sohaviy tizimdagi o'rniga va ularning fanlararo qo'llanilishiga bog'liq holda o'zgaradi. Shu bois tarjimashunoslik jarayonida terminlarning dinamikligi, ularning amaliy qo'llanilishi va polisemik tabiati alohida e'tiborga muhtojdir. Bundan tashqari, tarjima jarayonida "tarjimonning soxta do'stlari" yoki terminologik bo'lmagan birliklardan kelib chiqadigan chalkashliklar ham ilmiy aniqlikka putur yetkazadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, geologik matnlarni tarjima qilishda tarjimonlar terminlarning semantik xususiyatlarini chuqur tushunishi, ularning sohaviy tizim bilan bog'liqligini hisobga olishi va kontekstual talqinlarni inobatga olishi zarur. Shu bilan birga, ilmiy maqolalarda geologik matnlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan murakkab lingvistik va terminologik muammolarni tizimli ravishda yoritish, ularni chuqur tahlil qilish tarjimada ilmiy aniqlikni saqlagan tushunchalarni shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Al-Khudafi A. M., Fare I. A. Properties of Reservoir Rocks. — Emirates, 2024. — URL: https://www.researchgate.net/publication/384328690_Properties_of_Reservoir_Rocks_Properties_of_Reservoir_Rocks_Revised_2024 (murojaat qilingan sana: 15.05.2026).

- Bobyreva N.N. Translation of Texts for Special Purposes. — Kazan: Kazanskiy universitet, 2012. — 82 p.
- Gʻafurov I. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish. — Toshkent: Mehridaryo, 2008. — 118 b.
- Gʻafurov I., Moʻminov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. — Toshkent: Tafakkur boʻstoni, 2012. — 215 b.
- Kockaert H. J., Steurs F. Handbook of Terminology. Vol. 1. — Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2015. — URL: <https://www.degruyterbrill.com/document/doi/10.1075/hot.1/html> (murojaat qilingan sana: 15.05.2026).
- Newmark P. A Textbook of Translation. — Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 1988. — 153 p.
- Paluanova X. D. Ekologik terminlarning derivatsion tasnifi: Monografiya. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. — 152 b.
- Pearson J. Terms in Context. — Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1998. — 104 p.
- Rahimov Gʻ. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Oʻzbekiston milliy entsiklopediyasi, 2016. — 175 b.
- Ray P. S. Language Standardization: Studies in Prescriptive Linguistics. — The Hague, 1963. — 159 p.
- Salomov Gʻ. Tarjima nazariyasiga kirish. — Toshkent: Oʻqituvchi, 1978. — 220 b.
- Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. — Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2000. — 258 p.
- Yoʻldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. — Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2022. — 169 b.
- Yusupov U., Nurjanov S. E. Geologiya, gidrogeologiya va geomorfologiya: Oʻquv qoʻllanma. — Toshkent, 2008. — 239 b.
- Бархударов Л. С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. — Москва: Междунар. отношения, 1975. — 240 с.
- Даниленко В. П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. — Москва: Наука, 1977. — 246 с.

- Илюшкина М. Ю. Теория перевода: Основные понятия и проблемы. — Екатеринбург: Уральский федеральный университет, 2015. — 86 с.
- Латышев Л. К. Перевод: проблемы теории, практики и методики преподавания. — Москва: АСАДЕМА, 2003. — 99 с.
- Лейчик В. М. Терминоведение: Предмет, методы, структура. — Москва: ЛИБРОКОМ, 2009. — 256 с.
- Лотте Д. С. Основы построения научно-технической терминологии: Вопросы теории и методики. — Москва: Академия наук СССР, 1961. — 158 с.
- Милуд М. Р. К спорному статусу термина // Русистика без границ: Международный научный журнал. — София: ИСТИНА, 2023. — № 1. — С. 24–34.
- Миньяр-Белоручев Р. К. Общая теория перевода и устный перевод. — Москва: Воениздат, 1980. — 231 с.
- Прошина З. Г. Теория перевода (с английского языка на русский и с русского языка на английский). — Владивосток: ДВГУ, 2008. — 277 с.
- Росянова Т. С. Когнитивный подход к рассмотрению термина // Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета. — Санкт-Петербург, 2011. — С. 105–108.
- Толикина Е. Н. Некоторые лингвистические проблемы изучения термина // Лингвистические проблемы научно-технической терминологии: Сборник научных трудов. — Москва, 1970. — С. 53–67.

References

- Al-Khudafi A. M., Fare I. A. (2024). *Properties of Reservoir Rocks*. Emirates. Retrieved from https://www.researchgate.net/publication/384328690_Properties_of_Reservoir_Rocks_Properties_of_Reservoir_Rocks_Revised_2024
- Bobyreva N. N. (2012). *Translation of Texts for Special Purposes*. Kazan: Kazanskiy universitet.
- G'afurov I. (2008). *Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish* (Introduction to the Profession of Translation). Tashkent: Mehridaryo.
- G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N. (2012). *Tarjima nazariyasi* (Translation Theory). Tashkent: Tafakkur bo'stoni.

- Kockaert H. J., Steurs F. (2015). *Handbook of Terminology. Vol. 1.* Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company. Retrieved from <https://www.degruyterbrill.com/document/doi/10.1075/hot.1/html>
- Newmark P. (1988). *A Textbook of Translation.* Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press.
- Paluanova X. D. (2016). *Ekologik terminlarning derivatsion tasnifi* (Derivational Classification of Ecological Terms). Tashkent: Fan va texnologiya.
- Pearson J. (1998). *Terms in Context.* Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.
- Rahimov G'. (2016). *Tarjima nazariyasi va amaliyoti* (Theory and Practice of Translation). Tashkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi.
- Ray P. S. (1963). *Language Standardization: Studies in Prescriptive Linguistics.* The Hague.
- Salomov G'. (1978). *Tarjima nazariyasiga kirish* (Introduction to Translation Theory). Tashkent: Uqituvchi.
- Temmerman R. (2000). *Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach.* Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.
- Yo'ldoshev U. (2022). *Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari* (Linguostylistic and Linguocultural Features of Literary Translation). Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti.
- Yusupov U., Nurjanov S. E. (2008). *Geologiya, gidrogeologiya va geomorfologiya: O'quv qo'llanma* (Geology, Hydrogeology and Geomorphology: Textbook). Tashkent.
- Barkhudarov L. S. (1975). *Yazyk i perevod: Voprosy obshchey i chastnoy teorii perevoda* (Language and Translation: Issues of General and Specific Translation Theory). Moscow.
- Danilenko V. P. (1977). *Russkaya terminologiya: Opyt lingvisticheskogo opisaniya* (Russian Terminology: An Experience of Linguistic Description). Moskva: Nauka.
- Ilyushkina M. Yu. (2015). *Teoriya perevoda: Osnovnye ponyatiya i problemy* (Translation Theory: Basic Concepts and Problems). Yekaterinburg: Uralskiy federalnyy universitet.

Latyshev L. K. (2003). *Perevod: problemy teorii, praktiki i metodiki prepodavaniya* (Translation: Problems of Theory, Practice and Teaching Methodology). Moskva: Academia.

Leychik V. M. (2009). *Terminovedenie: Predmet, metody, struktura* (Terminology Studies: Subject, Methods, Structure). Moscow: LIBROKOM.

Lotte D. S. (1961). *Osnovy postroeniya nauchno-tekhnicheskoy terminologii: Voprosy teorii i metodiki* (Foundations of Scientific and Technical Terminology Construction: Issues of Theory and Methodology). Moscow: Akademiya nauk SSSR.

Milud M. R. (2023). *K spornomu statusu termina* (On the Controversial Status of the Term). *Rusistika bez granits: Mezhdunarodnyy nauchnyy zhurnal*, 1, 24–34.

Minyar-Beloruhev R. K. (1980). *Obshchaya teoriya perevoda i ustnyy perevod* (General Theory of Translation and Interpreting). Moscow: Voenizdat.

Proshina Z. G. (2008). *Teoriya perevoda (s angliyskogo yazyka na russkiy i s russkogo yazyka na angliyskiy)* (Translation Theory (from English into Russian and from Russian into English)). Vladivostok: DVGU.

Rosyanova T. S. (2011). *Kognitivnyy podkhod k rassmotreniyu termina* (Cognitive Approach to the Consideration of the Term). *Izvestiya Sankt-Peterburgskogo gosudarstvennogo ekonomicheskogo universiteta*, 105–108.

Tolikina E. N. (1970). *Nekotorye lingvisticheskie problemy izucheniya termina* (Some Linguistic Problems of Term Study). In *Lingvisticheskie problemy nauchno-tekhnicheskoy terminologii* (pp. 53–67). Moscow.